

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5111700-Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish
yo`nalishi, 3-bosqich, 304-guruh talabasi
Abdullayeva Muxayyo Maxmudjon qizining**

KURS ISHI

**Mavzu: Boshlang`ich sinflarda "Sifat" mavzusini o`rgatish
metodikasi.**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent M.Hamidova

Namangan-2014-yil

Mavzu: Mavzu: Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusini o'rgatish metodikasi.

Reja:

- 1. Sifat –so`z turkumi va uning tavsifi.**
- 2. Sifatni o`rganish metodikasi.**
- 3. Boshlang'ich sinflarda «Sifat» mavzusini o`rgatishning ahamiyati.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Kirish.

Yurtboshimiz I.A.Karimov «Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o`rni, mavqei va shuhrati bevosita o`z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog`liqdir<sup>1</sup> deb aytganlaridek, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda xalq og`zaki ijodining, hadisnavis allomalarimiz qoldirgan boy meroslarning o`rni kattadir.

Ma`lumki, keyingi yillarda yurtimizda va hattoki, jahon miqyosida ro`y bergan va ro`y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o`zgarishlar, ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgach, «O`zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunning e`lon qilinishi o`zbek tili va adabiyotiga munosabatni, uning mavqeini tubdan o`zgartirdi.

So`z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so`zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko`ra turli gruppalariga ajratilishi — so`z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So`zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda uch belgiga: 1) leksik ma`nosi (nimani ifodalashi, ya`ni shaxs, narsa harakat yoki holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma`nolari), 2) morfologik (so`zning turli formalar sistemasi) va 3) sintaktik (turli morfologik formalarning snntaktik funktsiya bajarishi) belgilariga asoslaniladi. Demak, so`z turkumlari ustida ishlash o`quvchilarning muayyan guruhdagi so`zlarning umumlashtirilgan ma`nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari so`z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe`l) bilan umumiy tanishtirilgandan so`ng har bir leksik-grammatik gruppalar alohida o`rganiladi. Bu so`z turkumlarini o`rganishning boshlang`ich bosqichidayok ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari ot, sifat, son, fe`lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar: 1) so`z nimanı bildirishi (shaxs, narsa belgisi, shaxs, narsa sanog`i va tartibi, shaxs, narsa harakati yoki holati), 2) qanday

¹ Qurbonov Sh. vaboshqalar. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1998. –B. 78.

so'roqlarga javob bo'lishi, 3) o'zgarish- o'zgarmasligi, qanday doimiy kategoriyalari mavjudligi, 4) gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi. O'quvchilar mana shu o'rgangan belgilari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar.¹

Predmetning doimiy, o'zgarmas belgisini ifodalaydigan so'zlar sifat deyiladi.

Sifat mustaqil so'z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgi. Sifat belgi ma'nosini bildiradi.

2. Morfologik belgisi: Sifat qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo'lib, ma'nosiga ko'ra bir necha guruhga ajratiladi:

a) rang-tus ma'nosini bildiradigan sifatlar: oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori;

b) hajmi ma'nosini bildiradi: keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda;

v) shakl va ko'rinish ma'nosini bildiradi: dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do'ng;

g) maza-ta'm ma'nosini bildiradi: shirin, achchiq, nordon, sho'r, taxir, chuchmal, bemaza;

d) xarakter-xususiyat ma'nosini bildiradi: muloyim, odobli, shirinso'z, chaqqon, sho'x, yalqov, dangasa, chechan, qo'rs, qaysar. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;

e) hid ma'nosini bildiradi: sassiq, qo'lansa, badbo'y, xushbo'y, muattar;

j) holat ma'nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo'ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: xursand, xafa, shod, kasal, injiq;

2) tabiiy holatni ifodalaydi: yosh, qari, kekxa.

Sifat belgini bevosita yoki bivosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma'no turlari sifatni bevosita ifodalaydi.

¹ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B.-245-246.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko'rsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi.

Belgini bavoysita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o'xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o'xshashlik, o'rin yoki paytga munosabat, mo'ljal ma'nolarini bildiradi:

a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so'zga -iy, -viy qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;

b) o'xshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zga -simon, -sifat affikslarini qo'shish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsifat;

v) o'rin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -gi, -qi, -ki, -dagi affikslarini qo'shish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturg, tushki, kechki;

g) mo'ljallanganlik, xoslik, o'lchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so'zlarga -lik affiksini qo'shish bilan yasaladi: ko'rpalik, ko'rpachalik, toshkentlik, ko'ylaklik.

Sifat ba'zan ravish o'rnida qo'llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma'noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o'qimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko'rsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasallish sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog'lanadi va o'zi bog'lanib kelayotgan so'zga tobelanadi.

Sifat otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do'stlarning eng yaxshi do'sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (Y.Shukurov).

Sifat fe'lga bog'lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: Yulduzlar odatdagidan ko'ra toza, kattaroq, yorqinroq ko'rinardi. (P.Qodirov).

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko'ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor: 1) oddiy daraja;

2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja

Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xudi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko'rsatadi va u maxsus ko'rsatkichga ega bo'lmaydi: go'zal tabiat, shirin qovun, keng hovli.

2) qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xudi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja leksik-morfologik usul bilan hosil qilinadi.

Oddiy darajadagi sifatga –roq affiksini qo'shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog'ishtirish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turadi. Misol: SHu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan donoroq va hatto savlatliroq ko'rinib ketdi. Donoroq, savlatliroq sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so'z (har vaqtdagidan) qiyoslash mazmun munosabatini ifodalayapti. O'shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o'rtadan ko'ra pastroq... xo'jaligi bor. (A.Qahhor). Bu misolda pastroq belgini kamligi bildiriyapti, qiyoslash ma'nosini o'rtadan ko'ra so'zlari ifodalayapti.

Qiyosiy darajadagi sifat oldidan sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: sal baland, bir oz baland, picha kattaroq, xiyol achchiqroq.

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan. 2. So'zlarni qo'shish bilan. 3. So'zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-li: rasmlli kitob, kuchli shamol

-dor: aybdor, vafoddor

ba-: badavlat, baquvvat

ser-: serhosil olma.

-mand: kasalmand, davlatmand

Yuqoridagi qo'shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz: tuzsiz ovqat.

be-: **beg**‘ubor, **bex**abar

Bu qo‘shimchalar esa (no- qo‘shimchasi bilan birgalikda: **no**aniq, **not**inch.) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik: toshkent**lik** (bola)

-iy,-viy: tarbiy**viy** soat, devor**iy** soat.

-gi,-ki,-qi: bahor**qi** ishlar, qish**ki** kiyim
(paytga xos belgini bildiradi).

-aki, -oqi: jizz**aki**, jirtt**aki**, pisto**qi**

-yi: havoy**i**.

-chan: ish**chan** bola.

-simon: odam**simon** maymun
(o‘xshashlik ma’nosini bildiradi).

-kor,-gar: isyon**kor**, zulm**kor**, javob**gar**, ig‘ vo**gar**.

-i: qishloq**i**, qozoq**i**, jannat**i**

-cha: farg‘ on**acha**, erkak**cha**, arab**cha** (o‘yin)

-namo: avliy**onamo**, darvesh**namo**

-parvar: xalq**parvar**, adolat**parvar**

-on: charog‘ **on**, za‘far**on**

-aki: dahan**aki**, og‘z**aki**

bad-: **bad**baxt, **bad**nafs

-shumul olam**shumul**, jahon**shumul**

-don: gap**don**, bilim**don**

-kash: dil**kash**, hazil**kash**

-bop: palov**bop**, qish**bop**

xush-: **xush**fe‘l, **xush**havo

-in: erk**in**, otash**in**

-vor: devon**avor**, afson**avor**

-parast: mansab**parast**, maishat**parast**

bar-: **bar**hayot, **bar**vagt

-chil: xalq**chil**, iz**chil**.

-lik(-liq):	ko 'ylak <u>lik</u> (chit), bolal <u>lik</u> (chog 'lar)
-i:	jannati <u>i</u> (kampir)
-loq:	baqa <u>loq</u> , qo 'sha <u>loq</u> (g ' o 'za)
-kor:	dev <u>kor</u> (ish), fusun <u>kor</u> (husn)
-kash:	zahmat <u>kash</u> (odam), nos <u>kash</u> (kampir)
-chi:	gap <u>chi</u> (odam), vahima <u>chi</u> (ayol)
-von:	zo 'ra <u>von</u> (odam)
-qa:	loy <u>qa</u> (suv)
-omuz:	hazil <u>omuz</u> (gap), zahar <u>omuz</u> (hazil)
-xo 'r:	g 'am <u>xo 'r</u> (odam), go 'sht <u>xo 'r</u> (hayvon)
-soz:	soat <u>soz</u> (usta)
-dek(-day):	muz <u>dek</u> (suv), jo 'jabir <u>day</u> (jon)

2) Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-choq,-chak,-chiq:	maqtan <u>choq</u> , kuyun <u>chak</u> , qizg 'an <u>chiq</u>
-gir,-g 'ir,-kir,-qir,-qur:	sez <u>qir</u> , top <u>qir</u> , o 'tk <u>ir</u> , olg 'ir, uch <u>qur</u>
-ma:	qaynat <u>ma</u> sho 'rva, bur <u>ma</u> ko 'ylak
-k (-uk, -ik,-ak)	chirik <u>k</u> , teshik <u>k</u> , tuz <u>uk</u> , g 'alvir <u>ak</u>
-q(-uq,-iq,-aG`oq):	ili <u>q</u> , sini <u>q</u> , buzuq, qolo <u>q</u> .
-oq:	qocho <u>q</u> , qo 'rq <u>oq</u> , baqiro <u>q</u>
-qi:	sayro <u>qi</u> qush,
-qoq, -g ' oq:	tirish <u>qoq</u> , uyush <u>qoq</u> , toyg ' o <u>q</u>
-ag ' on:	bilag ' <u>on</u> , chopag ' <u>on</u>
-mon:	bilar <u>mon</u> , qirar <u>mon</u>
-kun, -qin, -g 'in,	tush <u>kun</u> , ozg 'in, jo 'sh <u>qin</u> ,
-g 'un, -qun:	turg 'un, tut <u>qun</u>
-(a)rli:	etar <u>li</u> , zerika <u>rli</u>
-ch:	tin <u>ch</u> , jirkanch <u>ch</u>
-g 'ich:	yulg 'ich (odam)
-ong 'ich:	tepong 'ich, suzong 'ich

-ovuch: *hurkovuch, iskovuch*
 -mas: *o 'tmas(pichoq), indamas(odam)*
 -(i)ndi: *asrandi (bola)*
 -a: *ko 'tara (savdo)* -msiq:
qarimsiq, achimsiq

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo'shimchalar :

Ravishdan: -gi: *kechaqi, dastlabki*
 Sifatdan: no-: *noma'lum, noto'g'ri.*
 -lom: *sog'lom*

Taqlid so'zdan: -ildoq: *bijildoq, likildoq*

2. So'zlarni qo'shish, bog'lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) **qo'shma** sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo'shib yoziladi: **bodomqovoq, sheryurak;**

b) sifat va otdan. Bular qo'shib yoziladi: **qimmatbaho;**

v) ot yoki ravishga -ar qo'shimchali fe'lni qo'shish bilan yasaladi. Bular qo'shib yoziladi: **tezoqar** daryo, **ertapishar** (o'rik)

g) otga *aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang* so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: **xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti.**

Qo'shma sifatlar a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xom semiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon.*

2) **birikmali** sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo'ladi, bunday sifatlar *aralash, yo'q, ko'p, oliy, och, to'q, to'la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash (loy), tengi yo'q, ko'p tarmoqli, oliy ma'lumotli, och qizil, qorni to'q, to'q qizil, to'la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli (dala), uzun tolali (paxta), yoshi ulug' (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).*

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: *katta- kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi*; 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog' - salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor*; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi*.

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: **yakkayu yagona farzand**.

3. So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: *yo'l-yo'l* (ko'ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam),

Sifatlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda sifatlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *aqlli, yaxshi*.

2. Qo'shma sifatlar - *rahmdil, ertapishar, havo rang*. Bunday sifatlar: 1) ikki tub so'zdan tashkil topib, otQot (**kulcha yuz bola**), otQsifat, sifatQot (*sovuqqon*), ravishQot ko'rinishlarida bo'ladi: *ommabop, xom semiz (yigit), kamgap*; 2) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *sovuqqon, ishyoqmas, erksevar, tilbilmas*.

3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug'* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

4. Juft sifatlar - *o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq*.

5. Takroriy sifatlar - *baland-baland, uzun-uzun, yo'l-yo'l* (ko'ylak).¹

Sifatni o'rganish mavzusi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; sinfda sifat-so'z turkumi sifatida o'rganiladi; sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qo'shimchasi bilan yasalgan qiyosiy va qip-qizil, yamyashil kabi orttirma darajadagi (atama

¹ Hamroyv M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili.- Toshkent, B. 61-64.

aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o`rgatiladi. Ona tili va o`qish darslarida o`quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma`lum bo`lgan sifatlarning ma`nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o`rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko`rinishi, maza-tami, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o`rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma`nosi uni ot bilan bog`liq holda o`rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun sinfdanoq bolalar e`tibori sifatning otga bog`lanishini aniqlashga qaratiladi. O`quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so`roq yordamida gapda so`zlarning bog`lanishini aniqlash ko`nikmasi o`stiriladi, ya`ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so`z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog`liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) rejada olib borishni talab etadi.

Boshlang`ich sinflarda «Sifat» mavzusi quyidagi izchillikda o`rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (I sinf); 2) sifat haqida tushuncha berishdi (II sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog`liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o`zlashtirish (III, IV sinflar).

Sifat bilan (terminsiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma`nosi va so`roqlari ustida kuzatish o`tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo`lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma`nolarini aniqlash talab etiladi. O`qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko`rsatadi, o`quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma - qizil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) lenta - uzun, keng, ko`k lenta. Albatta, suhbat asosida o`quvchilar olma, lenta so`zlari nima? so`rog`iga javob bo`lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so`zlar qanday? so`rog`iga javob bo`lib, predmetning` belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishini aniqlaydilar. O`qituvchi atrofimizni o`rab olgan predmetlarning o`z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini misol bilan tushuntiradi:

(Qanday daraxt? - Katta, chiroyli, sershox, ko'mko'k daraxt. Qanaqa shkaf? - Oynali, baland shkaf.) Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi rolini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab qo'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O'quvchilar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan),so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap va hikoyacha tuzish.

Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: «sifat» tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

«Sifat» tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning «predmet belgisi» degan umumlashtirilgan kategoriyaning o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. SHu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar gruppalanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga untsng xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi, b) qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi, v) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu sinfda og`zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog`i yoki parkka sayohat vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoyacha tuzish kabilar)ga katta o`rin beriladi.

O`quvchilarning sifatning leksik ma`nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o`stirish uchun: 1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday shaftoli? SHirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday bino? Baland, g`ishtli, chiroyli bino; 2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali... (tipratikan). Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi..., (tulki); 3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi rolini puxta o`zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonim sifatlar ustida ishlash, o`qish darslarida sifatning o`z va ko`chma ma`noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o`rganish jarayonida so`z yasashga oid mashqlarni muntazam o`tkazib borish o`quvchilarda u yoki bu so`z turkumini yasash uchun so`z yasovchi qo`shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og`zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o`rinli foydalanish ko`nikmasini o`stirish bilan bog`liq holda -roq qo`shimchasi bilan qo`llangan sifatlarni va ko`mko`k, yamyashil kabi sifatlarni to`g`ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o`quvchilarning nutqini o`stirishga qaratiladi.

Nazariy ma`lumotlarga asoslanib matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo`yish, gapda sifat bog`langan otni (so`z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so`z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -roq qo`shimchasi bilan qo`llangan yaxshiroq, aqlliyoq kabi, shunigdek, tiptiniq, sapsariq kabi sifatlar ko`proq bo`lishiga e`tibor beriladi. O`quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-

sekin murakkablashtira boriladi. SHunday qilib, sifatni o`zlashtirishda uni ot bilan o`zaro bog`liq holda o`rganishga asoslaniladi.¹

Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusini o`rgatish metodikasi katta o`rin tutadi. Sababi, 1-sinfdan boshlab o`quvchilarga narsa-buyum belgisini bildiruvchi so`zlar bu sifat-so`z turkumi ekanligi haqidagi tushuncha shakllantirib borilishi natijasida ular bu haqda to`liq ma`lumotga ega bo`ladilar.

¹ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B.-258-260.

Xulosa.

Boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusini o'rgatish jarayonida o'qituvchi katta malakaga, mahoratga va tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Uning har bir darsi bir sahnaviy asarga o'xshashi, bu orqali o'quvchilar qalbiga sezilarli ta'sir o'tkaza olishi kerak. Toki, o'quvchi dars tugasa ham, shu o'qituvchining darsini intiqib kutadigan bo'lsin.

Umuman, boshlang'ich sinflarda "Sifat" mavzusini o'rgatish jarayonida shu darslikdagi "Sifat" mavzusi bilan yaqindan tanishtirish jarayonida mazkur mavzuga bo'lgan ularning qiziqishlarini orttirishga erishilishi lozim bo'ladi. Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo'lgan holda ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklardan boxabar bo'lishi, ularni dars jarayonida bolalarning yoshi va xarakter xususyaitlarini e'tiborga olgan holda qo'llay bilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so`zi, 2013-yil, 7-dekabr.
2. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- Toshkent: O`zbekiston, 2011.- 432 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.
4. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Ona tili darslari (qo`llanma).- Toshkent, 1999.
5. Ikromova R. Va boshqalar. Ona tili: umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O`qituvchi, 2011.- 192 b.
6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. Ona tili: 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: O`qituvchi, 2012.- 144 b.
7. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. Boshlang`ich ta`lim fakultetlari uchun darslik.- Toshkent: Noshir, 2009.
8. Qosimova K., Ne`matova A. 2-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2004.
9. Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho`lpon, 2012.- 128 b.
10. G`afforova G. va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2003.
11. G`affarova T. va boshqalar. Ona tili: 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: Sharq, 2012.- 112 b.
12. G`ulomova X. va boshqalar. 4-sinfda ona tili darslari.- Toshkent, 2004.

Internet materiallari.

1. WWW. rambler. literature. ru.

2. <http://www.gov.uz/uz/year/> O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2014- yil 19 -fevraldagi PQ-2133-son qarori
- 3.[http: // daryo.uz/2014/03/04/sog'lom-bola-yili-davlat-dasturi](http://daryo.uz/2014/03/04/sog'lom-bola-yili-davlat-dasturi)
- 6.[http: //www.edu.uz/uz/node/42811](http://www.edu.uz/uz/node/42811)